

ECO-INDUSTRIAL PARK (EIP) KONSEPSIYASI VA UNING O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDAGI AHAMIYATI

Shomuratov Elbek Baxtiyorovich,

Iqlim o‘zgarishi Milliy markazi bosh mutaxassisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonda issiqxona gazlari chiqindilari va sanoat zonalarining iqtisodiyotdagi ahamiyatli o‘rni, “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda Eco-Industrial Park (EIP) mexanizmining ahamiyati tahlil qilinadi. Eco-industrial park konsepsiyasiga tegishli atrof-muhit, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqaruv tamoyillari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot O‘zbekistonning hozirgi sanoat infratuzilmasi, ekologik muammolari va xalqaro EIP mezonlari bilan solishtiriladi.

Kalit so‘zlar: Eco-Industrial Park, “yashil” iqtisodiyot, O‘zbekiston, issiqxona gazlari, sanoat zonalar, atrof-muhit boshqaruvi.

KIRISH

O‘zbekiston iqtisodiy o‘shini davom ettirar ekan, uning barqarorligini ta‘minlash va sanoatning atrof muhitga zararini kamaytirish muammosi oldinga chiqmoqda. Sanoat zonalar — maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ), kichik sanoat zonalar (KSZ), texnoparklar va klasterlar — mamlakat iqtisodiy o‘shini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va xalqaro bozorlarga integratsiyani ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi.

2024 yilgi BMT Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha doiraviy konvensiyasi doirasida O‘zbekiston Respublikasining ikki yillik shaffoflik hisobotiga ko‘ra, mamlakatning umumiy issiqxona gazlari chiqindilari 209,6 mln. t CO₂-ekv.ni tashkil etdi.

Sektorlar kesimida chiqindilar quyidagicha taqsimlandi (UNFCCC, 2024):

- energetika – 133,5 mln. t;
- sanoat – 30,3 mln. t;
- qishloq xo‘jaligi – 35,4 mln. t;
- chiqindilar – 10,5 mln. t CO₂-ekv.

Ushbu raqamlar O‘zbekistonda EIP konsepsiyasini joriy etishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Asosiy qism

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida sanoat sektori ulushi izchil o‘sib bormoqda. Jumladan, 2022-yilda yalpi ichki mahsulotda (YaIM) sanoatning ulushi


26,7 %ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilning birinchi yarmida bu ko‘rsatkich 27,8 % gacha yetdi. Bu esa mamlakat sanoat salohiyatining kengayib borayotganidan dalolat beradi.

2017–2022-yillar oralig‘ida tashkil etilgan maxsus sanoat hududlari ham yalpi ishlab chiqarishga sezilarli hissa qo‘shdi. Xususan, 20 ta maxsus industrial zona (MIZ) sanoat ishlab chiqarishga 4,9 %, 506 ta klaster 5,2 %, 317 ta kichik sanoat zonasi (KSZ) esa 1,2 %lik ulush qo‘shdi. Bu esa sanoatning diversifikatsiyalashuvi va hududiy rivojlanish imkoniyatlari kengayayotganini ko‘rsatadi.

2023-yilda sanoat zonalaridagi korxonalar faoliyat natijalariga ko‘ra, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 53,4 trillion so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, eksport hajmi qariyb 972 million AQSh dollariga teng bo‘ldi. Bu ko‘rsatkichlar sanoat zonalarini nafaqat ichki bozorni ta‘minlashda, balki tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishda ham muhim o‘rin tutayotganini anglatadi.

EIP mexanizmining afzalliklari

O‘zbekistonda yashil sanoat zonalarini rivojlantirish bir qator iqtisodiy, ekologik va



ijtimoiy afzalliklarni beradi. Avvalo, **resurs samaradorligi** hisoblanadi. Bunda energiya, suv va chiqindilarni boshqarishning zamonaviy tizimlarini joriy etish orqali korxonalar xarajatlarini 10–30 foizgacha qisqartirish mumkin (UNIDO, 2017). Bu esa ishlab chiqarish tannarxini kamaytirib, mahsulotning ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshiradi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish – **xorijiy investitsiyalarni jalb qilish**. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yashil sertifikatlangan sanoat zonalarini xalqaro investorlar uchun jozibador hisoblanadi. Masalan, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida bunday zonalarga kirgan investorlar ularga imtiyozli kreditlar va “yashil brend” ustunliklaridan foydalanadi.

Shuningdek, **eksport raqobatbardoshligi** ham alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda Yevropa Ittifoqi karbon soliqlarini (CBAM) joriy qilmoqda. O‘zbekistonning sement, o‘g‘it, alyuminiy va boshqa mahsulotlari ushbu siyosatga moslashsa, eksport bozorlarida yo‘qotishlar oldi olinadi va milliy ishlab chiqaruvchilar himoya qilinadi.

Yashil ish o‘rinlari yaratish ham katta imkoniyatdir. Energiya samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohalarida minglab yangi ish joylari paydo bo‘lishi kutilmoqda. Bu esa bandlik darajasini oshirish bilan birga, yoshlar va mutaxassislar uchun yangi kasbiy imkoniyatlarni taqdim etadi.

Bundan tashqari, **innovatsion klasterlar** tashkil etish orqali texnoparklar, universitetlar va ishlab chiqarish korxonalari hamkorligi kuchayadi. Bu yangi texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlar va startaplarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Yana bir ustunlik – **energiya xavfsizligi**. Quyosh, shamol va biokütla kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish natijasida import qilinadigan yoqilg‘iga bo‘lgan qaramlik sezilarli darajada kamayadi. Shu orqali energetik mustaqillik mustahkamlanadi.

Va nihoyat, **moliyaviy imkoniyatlar** ham mavjud. Yashil moliyalashtirish manbalari – Green Climate Fund, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (ADB) va boshqa xalqaro tashkilotlardan grantlar, kreditlar hamda investitsiyalar jalb etilishi mumkin. Bu resurslar ekologik loyihalarni amalga oshirishni tezlashtiradi.

Xalqaro tajriba

Ekologik sanoat zonalarini g‘oyasi dunyo miqyosida keng tarqalmoqda. Uning eng mashhur klassik namunalaridan biri — **Kalundborg EIP (Daniya)** bo‘lib, bu yerda sanoat simbiozi konsepsiyasi muvaffaqiyatli joriy etilgan. Ya’ni, bir korxonada ishlab chiqarish jarayonida hosil qiladigan chiqindi yoki ortiqcha issiqlik boshqa korxonada uchun xomashyo yoki energiya manbai sifatida foydalaniladi. Natijada chiqindilar kamayadi, resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi va korxonalar iqtisodiy jihatdan ham foyda ko‘radi.

Xalqaro miqyosda ekologik sanoat zonalarini rivojlantirish uchun **UNIDO, Jahon banki va GIZ** hamkorligida maxsus **EIP ramkasi** ishlab chiqilgan. Ushbu ramka **31 ta majburiy mezon** va **33 ta samaradorlik indikatorini** qamrab oladi. Mezonlar orasida ekologik standartlarga rioya qilish, energiya va suv samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash, mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlik kabi ko‘rsatkichlar mavjud (UNIDO et al., 2021).

O‘zbekistonda ham ushbu yo‘nalishda dastlabki amaliy qadamlar tashlanmoqda. Jumladan, **2025-yilda Toshkentda UNIDO tomonidan EIP bo‘yicha seminar tashkil etildi**, unda davlat idoralari, xususiy sektor vakillari va ilmiy doiralar ishtirok etdi. Seminar doirasida milliy mutaxassislarni tayyorlash ishlari yo‘lga qo‘yildi va O‘zbekistonda ekologik sanoat zonalarini joriy etish bo‘yicha dastlabki tashkiliy chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Xulosa va tavsiyalar

Eco-Industrial Park konsepsiyasi O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasining ajralmas qismi bo‘lib, iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va xalqaro raqobatbardoshlikni oshiradi.

Tavsiyalar:

1. Mavjud sanoat zonalarini bosqichma-bosqich EIP standartlariga moslashtirish.
2. Monitoring va baholash tizimini joriy etish.
3. Soliq imtiyozlari va moliyaviy rag‘batlar tizimini kuchaytirish.
4. Xalqaro tashkilotlar, ilmiy institutlar va texnoparklar bilan hamkorlikni kengaytirish.

MANBALAR

- O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2025-y. 15-may). O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zona, texnopark va klasterlar faoliyati to‘g‘risida press-reliz.
- Chertow, M. R. (2007). Uncovering industrial symbiosis. *Journal of Industrial Ecology*, 11(1), 11–30. <https://doi.org/10.1162/jiec.2007.1110>
- Lowe, E. A. (2001). *Eco-Industrial Park handbook for Asian developing countries*. Asian Development Bank. <https://www.adb.org>
- Nolan, T. (2012). Applying eco-industrial development. Minnesota Pollution Control Agency. <https://www.pca.state.mn.us>
- UNIDO, World Bank, & GIZ. (2021). *An international framework for eco-industrial parks (Version 2.0)*. United Nations Industrial Development Organization. <https://www.unido.org>
- UNIDO. (2025a, July 1–2). *EIP assessment training: Building local capacity for sustainable industrial development* [Workshop report]. UNIDO.
- UNIDO. (2025b, January 24). *Transforming industrial zones in Uzbekistan: A step towards sustainability*. The United Nations in Uzbekistan. <https://uzbekistan.un.org>
- UNFCCC. (2024). *Biennial report on transparency of the Republic of Uzbekistan*. UNFCCC Secretariat.